



## “FUTBOL MUSOBAQALARI BILAN BOG‘LIQ OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISHDA FUQAROLAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FOALIYATINI TASHKILASHTIRISH TARTIBI”

*Narziyev A ’zam Yorkulovich*

*O ‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi*

*Universiteti Magistratura tингlovchisi*

**+99893-378-85-07**

***Uxayyom193@gmail.com***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimiz xududlarida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartib-qoidalari va tadbirlarda jamoat tartibini saqlash, ommaviy tartibsizlikning oldini olish, fuqarolarning xavfsizligini ta’milash bo‘yicha choralarining mazmun-mohiyati tadqiq qilingan. Shuningdek, ommaviy tartib, jamoat xavfsizligi haqida tushunchalar nazariy jihatdan o‘rganilgan. Xorijiy olimlarning sohaga oid fikrlari ham o‘rganilingan. Mualliflik tushunchalari berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ommaviy tadbirlar,xavfsizlik,jamoat xavfsizligi, davlat xavfsizligi, xavf, barataraf etish.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается задачи концепции поддержания общественного порядка на массовых мероприятиях, связанные с предупреждением массовых беспорядков. Также теоретически изучены понятия общественного порядка, концепции и общественной безопасности. Так же были изучены мнения зарубежных ученых в этой области. Дается понятие авторства.

**Ключевые слова:** массовые мероприятия, безопасность, общественная безопасность, понятие, государственная безопасность, риск, устранение.

**Annotation:** This article discusses the tasks of the concept of maintaining public order at mass events, the essence of measures to prevent riots. The concepts of public order, conception and public safety are also theoretically studied. The opinions of foreign scientists in this field were also studied. The concepts of authorship are given.

**Key words:** mass events, security, public security, concept, public security, risk, elimination.



### Kirish:

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz riosa etilishini ta’minalash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, demokratik huquqiy davlat qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. [1]

Darxaqiqat, yurtimizda olib borilayotgan keng islohatlar jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalik qaror topishi, inson huquq va erkinliklarini so‘zsiz riosa etilishini ta’minalash, qonun ustivorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini isloh qilish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jixatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish maqsadida juda ko‘plab samarali ishlar olib borilmoqda.

### Mavzuga oid adabiyotlar taxlili:

Dunyoda va mintaqamizda notinch vaziyatlarni, xisobga olgan xolda, mamlakatimiz xududida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibini saqlashni tashkillashtirish tartibini ta’minalashga qaratilgan yangi taxrirdagi qonunlar, farmonlar, jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 oktabrdagi 808-som “Ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati bo‘linmalari tomonidan fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minalash xizmatlarini shartnomaviy-huquqiy asosda ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minalashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 10 apreldagi PF-5005 sonli farmoni hamda uning ijrosi doirasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minalash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 1 may PQ-2940-somli va «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi 2018 yil 14 fevraldagli PQ-3528 sonli qarorlari,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligini ta’minalash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2021 yil 26 martdagli PF-6196-somfarmoni, Vazirlar mahkamasining «Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida» 2014 yil 29 iyuldagli 205-som qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish



chora-tadbirlari to‘g“risida”gi 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son farmonilar qabul qilingan. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qonunlarga binoan kuch tuzimlarari tomonidan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari sifatida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha bir qator vazifalar beliglab berilgan. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish bobining:

**16-maqсадида:** Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbazarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, ya’ni huquqbazarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish. Jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlardan bo‘limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish. Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlashlari hamda **17-maqсадида:** Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyoqasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirishni, ya’ni Ichki ishlardan organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish. Qonuniylikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq va adolatlilik prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda «Qonun - ustuvor, jazo - muqarrar» tamoyilini bosh mezonga aylantirish. Tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarni hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish ko‘rsatib o‘tilgan. [2]

Vazirlar mahkamasining «Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g“risida» 2014 yil 29 iyuldagagi 205-son qarorida Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlashga qo‘yiladigan talablar, ular



ishtirokchilarining, ommaviy tadbirlarni o'tkazish ob'ektlari ma'muriyatlarining ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalari va davlat boshqa organlarining ularga rioya qilish bo'yicha majburiyatları va huquqlari ko'rsatib o'tilganligi, ommaviy tadbirlar haqidagi tushuncha qo'yidagicha tariflangan.

Ommaviy tadbir - 100 va undan ko'p kishilarning ishtirokida ijtimoiy-siyosiy (anjumanlar, konferensiyalar, s'ezdlar va boshqalar), madaniy-ommaviy va ko'ngilochar-tomosha dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o'yinlar, ko'riktanlovlar va boshqalar), shuningdek umumxalq, diniy, kasb bayramlarini o'tkazish maqsadida ommaviy tadbirni o'tkazish ob'ektida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlariga aytildi. [3]

Davlat xokimiyati va boshqaruv organlari hamda yuridik va jismoniy shaxslar ommaviy tadbirlarni o'tkazish tashkilotchilari bo'lishlari mumkin. Qo'yidagilar: tashkilotchilar, artistlar, sportchilar va dasturda nazarda tutilgan tomosha ko'rgazma chiqishlarini bevosita amalga oshiruvchi boshqa shaxslar hamda tomoshabinlar ommaviy tadbirlar qatnashchilar hisoblanadi.

Zero, qabul qilingan qonun va farmonlar mamlakatimiz xududida ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat tartibini saqlashni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, davlat hamda shaxsiy mulklari saqlash, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek fuqarolarimiz ongida qonunlarga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda.

Ommaviy tadbirni o'tkazish ob'ekti ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun qo'yidagi talablar qo'yilgan maxsus mo'ljallangan yoki moslashtirilgan, yong'inga qarshi xavfsizlik, tez tibbiy yordam ko'rsatish, evakuatsiya qilish, kommunikatsiya, muhandis-texnik himoya vositalari, ommaviy tadbir ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashning boshqa vositalari va tizimlari bilan jihozlangan bo'lishi kerakligi qonunlarda ko'rsatilgan .

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish ob'ektlari ro'yxatlariga kiritilgan ochiq joy uchastkalari, binolar, inshootlar va boshqa joylar (madaniyatma'rifat muassasalari, sport majmualari va boshqalar)da o'tkaziladi. Ommaviy tadbir tashkilotchisi ommaviy tadbirni tashkil qilish va o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga olgan davlat organi, yuridik shaxs va 18 yoshga yetgan jismoniy shaxs xisoblanadi.



### Tadqiqot metodolagiysi:

Ommaviy tartibda jamoat tartibi va xavfsizligi yo'nalishida tadqiqod olib borgan olimlarning fikr va tariflariga to'xtalib o'tsak.

Yuridik fanlar doktori, professor I.Ismailovning tariflashicha Jamoat tartibi – bu amaldagi huquq va ijtimoiy (axloq) normalarga rioya qilish orqali fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini, ko'pchilik (omma)ning xavfsizligini ta'minlashga, xududdagi jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko'rsatishi, insonlarning mehnat qilishi va dam olishlari uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan, shuningdek, ularning sha'n-shavkati, insoniy qadr-qimmati hamda ijtimoiy axloq normalarini hurmat qilish bo'yicha asosan jamoat joylarida vujudga keladigan va taraqqiy etib boradigan ijtimoiy munosabarlar tizimidir deb ko'rsatib o'tilgan.

Jamoat xavfsizligi – bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa xi洛 harakatlar, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, zilzilalar, epidemiyalar, epizootiyalar, katta falokatlar, avariylar va yong'inlar natijasida kelib chiqadigan favqulotda vaziyatlar oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir deb ta'riflar keltirgan. [4]

Bundan tashqari, N.V.Balandina "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarni davlatning jamiyat, alohida fuqarolar oldidagi mas'uliyati nuqtai nazaridan tahlil qilib, ular nafaqat davlatning asosiy funksiyalarining mazmunini, shu jumladan standartlar, ichki tajovuzlardan, jinoyatlar sonidan, shuningdek, tashqi tajovuzlardan himoya qilish va ta'minlash, shuningdek, huquqning funksiyalarini (xavfsizlikni o'rnatish) aks ettirishini to'g'ri ta'kidlaydi. Qonun jamoat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga soluvchi, ya'ni, xavfsizlik standartlarini, tartibni (tartibga solish funksiyasini), shuningdek vakolatli davlat organlari tizimi yordamida o'rnatadi, jamiyatda xavfsizlik va tartibni ta'minlaydi, kafolatlaydi va himoya qiladi deb tariflagan. [5]

Shuningdek, V.M.Vasinning fikricha, jamoat xavfsizligi - bu shaxs va jamiyat hayoti davomida vujudga keladigan, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning xavfsiz faoliyat yuritishi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishi, boshqaruv, ma'muriy-huquqiy va axborot-huquqiy jihatdan aniq belgilangan jamoat munosabatlarining ma'muriy va axborot huquqi normalari bilan himoyalangan holatidir deya ko'rsatib o'tilgan.[6].

Ye.B.Olxovskiy tariflashicha jamoat xavfsizligi tushunchasini keng va tor ma'noda ko'rib chiqadi. Uning fikricha, jamoat xavfsizligi keng ma'noda davlat, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishini, har bir fuqaro uchun osoyishtalik muhitini ta'minlaydigan huquqiy, jumladan, huquqni muhofaza qilish choralar majmuidir.



Tor ma'noda jamoat xavfsizligi - bu odamlar hayoti jarayonida vujudga keladigan mustahkam irodali ijtimoiy munosabatlar, ularning jamoat joylarida sivilizatsiyalashgan jamiyatning huquqiy normalari, qoidalari va urf-odatlarining amaldagi ko'rsatmalariga muvofiq muloqot qilish tartibidir. Olimning fikricha, jamoat xavfsizligi mazmuni tor ma'noda jamoat xavfsizligi bilan bog'liq munosabatlarni va davlat organlarining, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. [7].

### **Muxokama va natijalar:**

Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi to'g'risida olimlarning yuqoridagi fikr va tariflari turlicha ekanligi lekin, asosiy e'tiborni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, xavfsizligiga, jamaat tartibi saqlash, tashqi xavflardan ximoyalanganligi bo'yicha davlatning asosiy funksiyalaridan biri ekanligi shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyatini tartibga solish ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va ko'ngilochar-tomosha dasturlari umumxalq, diniy, kasb bayramlarini o'tkazish maqsadida ommaviy tadbirni doimiy ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jamoat tartibi va xavfsizligi ta'minlanib kelinmoqda, lekin futbol o'yinlarida va stadionlardagi konsertlarda fuqarolarimiz tomonidan jamoat tartibini buzilayotganligini ham ko'rayapmiz.

Misol tariqasida mashhur san'atkoring ochiq osmon ostidagi konsertlar tashkillashtirilmoqda. Bu konsertlarni xavfsizligini ta'minlash maqsadida kuch tuzilmalar tomonidan turli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan konsertlarga chiptalar olish yoki konsertlarga kirish uchun tor yo'laklarda olomonning tartibsiz xarakatlari tizilinchlar yuzaga kelishi, yoki bir joyda to'planib qolishlari, xavfsizlik uchun o'rnatilgan temir panjaralari to'siqlardan o'tib sahna yoki





tadbir o'tkazilayotgan maydonchalarga chiqishlarga urinishlar, xavfsizligini ta'minlovchi kuch tuzilmalarning qonuniy talablarini bajarmasliklari, shuningdek xususiy tadbirkorlar tomonidan o'z maxsulotlarini arzonlashtirilgan aksiya va chegirmalar reklamasi orqali olomonni o'ziga jalg qiluvchi tadbirlar ko'plab bo'lib o'tmoqda. Bunday aksiya va chegirmalar reklamasi orqali savdo markazlari oldida yuzlab fuqarolararzon mahsulotlarni olishga ulgurish uchun bir vaqtida to'planishilar, savdo markaziga kirish uchun fuqarolar o'rtasida tortishuvlar, kelishmovchiliklar, tibbantliklar yuzaga kelayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

### Xulosa va takliflar:

Bizning fikrimizcha, bunday tadbirlarning tashkilotchisi bo'lgan yuridik shaxs yoki jismoniy shaxslar tomonidan ommaviy tarbirlar o'zkazish bo'yicha qo'yilgan talablarga alohida e'tibor berilmasligi yoki fuqarolar tomonidan ommaviy tadbirlarda xuquq va majburiyatlarini bilmasliklari oqibatida kelib chiqmoqda deb hisoblaymiz va qo'yidagi takliflarni ko'rsatib o'tamiz:

**Birinchidan:** Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda tashkilotchilar tomonidan ob'ektlarini qonunlarda ko'zda tutilgan talablar asosida tanlash, fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash sharoitlarining mavjudligini hisobga olgan holda tashkillashtirishni, ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonunlarda ko'zda tutilgan majburiyatlarini va qo'yilgan talablarni to'la tukis bajarishlari orqali erishiladi.

**Ikkinchidan:** Arzonlashtirilgan aksiya va chegirmalar bilan kiyim-kechaklar, buyumlar turli hil mahsulotlarini sotish bo'yicha ommaviy reklama tadbirlarda ishtirokchilarining sonini aniq bilishlari kerakligi, bu tadbirlarda ishtirokchilarni sonini aniqlashtirish uchun internet yoki savdo markazida bepul chiptalar, taklifnomalar va ruxsatnomalar asosida tashkil qilishlari orqali bilishlari mumkin.

**Uchinchidan:** Fuqarolarimizga ommaviy tadbirlarda huquqiy ongi va madaniyatini, ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas'uliyatini oshirish va mustahkamlash bo'yicha tushintirishlar olib borish, bunday tadbirlarni IIV, MG xodimlar tomonidan doimiy ravishda targ'ibot ishlari olib borishlari, mакtablar, oliy o'quv yurtlarida, masjidlarda ommaviy tadbirlarda ommaviy madaniyat to'g'risida ma'ruzalar olib borish orqali yetkazish mumkinligi;

**To'rtinchidan:** Ommaviy tarbirlar jamoat tartibini saqlash, ommaviy madaniyat bo'yicha ommaviy axborot vositalarida targ'ibot reklamalari orqali fuqarolarimiz ongiga singdirish mumkinligi bu usulda ancha samarali xisoblanadi.



### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-5005 sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.
3. Vazirlar mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagagi «Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 205-sон qarori.
4. “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’mirlash faoliyati” darslik.
5. См.: Баландина Н.В. Общественный порядок и общественная безопасность – зона ответственности государства перед обществом // Правовая культура. 2011. № 2. С. 67.
6. Васин В.Н. Право на общественную безопасность. М.: Изд-во «Щит», 1999. 172с.
7. Ольховський Є.Б. Адміністративно-право виза собизабезпечення громадської безпеки: дис.канд. юрид. наук. Х., 2003. 191 с.
8. “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirishi chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 29 noyabr kungi PF-27-son farmoni.
9. “Jamoat xavfsizligini ta’minlash asoslari” Darsligi.-Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. 471.
10. Ommaviy tadbirlar va ommaviy tartibsizliklar davrida jamaot xavfsizligini ta’minlash. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. 123b.